OMMAVIY OFERTA

Mazkur Ommaviy oferta «Olbilet» MChJning (keyingi o‘rinlarda — Oferta) veb-servis va mobil ilova formatidagi Platforma orqali yaratilgan madaniy-ko‘ngilochar tadbirlarga elektron chiptalarni sotib olish bo‘yicha shartnoma tuzish, shuningdek axborot va reklama xabarnomalarini olish bo‘yicha ommaviy taklifidir hamda O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 358, 367–370-moddalari bilan tartibga solinadi.

Mazkur «Olbilet» MChJning Ommaviy ofertasi https://olbilet.uz veb-saytida joylashtirilgan bo‘lib, Xaridor va «Olbilet» MChJ o‘rtasida elektron chiptalarni (keyingi o‘rinlarda — “Chiptalar”) sotib olish bilan bog‘liq xizmatlar ko‘rsatish shartnomasini tuzish munosabati bilan yuzaga keladigan barcha munosabatlarga nisbatan qo‘llaniladi.

1. ATAMALAR VA TA’RIFLAR

1. Mazkur Ommaviy ofertada madaniy-ko‘ngilochar, sport va boshqa Tadbirlar (keyingi o‘rinlarda — “Tadbirlar”) uchun Chiptalarni realizatsiya qilish bo‘yicha quyidagi atamalar va ta’riflar quyidagi ma’nolarda qo‘llaniladi:

1.1. Agent — Tadbir tashkilotchilari va/yoki ular tomonidan vakolat berilgan boshqa shaxslar bilan tuzilgan shartnomalar asosida Platforma orqali veb-servis va mobil ilova formatida Tadbirlar uchun Chiptalarni bron qilish, rasmiylashtirish va sotish xizmatlarini ko‘rsatish huquqiga ega bo‘lgan «Olbilet» MChJ.

1.2. Aksept — Xaridor tomonidan mazkur Ommaviy oferta shartlariga to‘liq va so‘zsiz rozilik Chiptani to‘lash orqali amalga oshiriladi.

1.3. Bekor qilish (annullashtirish) — Chiptalarni Buyurtmadan o‘chirib tashlash va ularni avtomatik tarzda tizimda erkin sotuvga qaytarish. Agar Buyurtma rasmiylashtirish boshlanganidan keyin 15 daqiqa ichida to‘lanmasa, u avtomatik ravishda bekor qilinadi.

1.4. Chipta — Platforma tomonidan veb-servis va mobil ilova formatida yaratilgan, QR-kod va/yoki shtrix-kod hamda zaruratga ko‘ra qo‘shimcha himoya elementlarini o‘z ichiga olgan hujjat bo‘lib, Xaridorning Tadbir tashkilotchisi bilan xizmat ko‘rsatish shartnomasini tuzganligini va to‘lovni amalga oshirganligini tasdiqlaydi hamda ushbu hujjat egasining Tadbirga kirish huquqini tasdiqlaydi. Chipta chop etilishi mumkin.

1.5. Bron — Tizimda shakllantirilgan, bir yoki bir nechta Chiptalardan iborat bo‘lgan va Xaridor tomonidan to‘lov kutilayotgan Buyurtma. Bron amal qilish muddati — Bron amal qiladigan vaqt oralig‘i.

1.6. Shartnomalar — Mazkur Ofertaga muvofiq tuzilgan (yoki tuzilayotgan) xizmat ko‘rsatish shartnomasi va madaniy-ko‘ngilochar/sport-ko‘ngilochar xizmatlar shartnomasi.

1.7. Xizmat ko‘rsatish shartnomasi — Mazkur Ofertaga muvofiq Xaridor va Agent o‘rtasida tuziladigan shartnoma bo‘lib, unga ko‘ra Agent Xaridorga Tadbir haqida ma’lumot berish, bron qilish, onlayn sotish va Chiptalarni rasmiylashtirish, shuningdek boshqa qo‘shimcha xizmatlarni ko‘rsatadi, Xaridor esa ushbu xizmatlar uchun to‘lovni amalga oshiradi.

1.8. Madaniy-ko‘ngilochar/sport-ko‘ngilochar xizmatlar shartnomasi — Mazkur Ofertaga muvofiq Tashkilotchi va Xaridor o‘rtasida tuziladigan shartnoma bo‘lib, unga ko‘ra Tashkilotchi Chipta da ko‘rsatilgan joy va vaqtda Tadbirni o‘tkazishni hamda Xaridorga sotib olingan Chipta asosida Tadbirga kirish imkoniyatini ta’minlash majburiyatini oladi. Xaridor esa o‘z navbatida Chipta nominal qiymatini to‘lash majburiyatini oladi.

1.9. Buyurtma — Xaridor tomonidan shaxsiy, tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan foydalanish uchun tanlangan, bir yoki bir nechta Tadbirlar uchun bir yoki bir nechta Chiptalar bo‘lib, Tizimdan rasmiylashtiriladi va yagona identifikatsiya raqami bilan birlashtiriladi.

1.10. Tadbir — madaniy-ko‘ngilochar va/yoki sport-ko‘ngilochar tadbir, jumladan teatr spektakli, sirk tomoshasi, zalda, klubda yoki ochiq maydonda o‘tkaziladigan konsert, ko‘rgazma, kino namoyishi, festival, shou, moda ko‘rgazmasi, sport musobaqasi, ekskursiya, shuningdek faqat Chipta taqdim etilganda tashrif buyurish mumkin bo‘lgan boshqa har qanday tadbir.

1.11. Agentning veb-servis va mobil ilova formatidagi Platformasi — mobil qurilmalarga (smartfonlar, planshetlar va boshqalar) o‘rnatish va foydalanish uchun mo‘ljallangan, Agentga tegishli bo‘lgan va maxsus elektron platformalarda (Google Play, Apple Store va boshqalar) joylashtirilgan elektron dastur bo‘lib, Xaridorga Agent xizmatlaridan masofadan, elektron shaklda foydalanish imkonini beradi.

1.12. Chipta nominal qiymati — Tadbirga tashrif buyurish qiymatiga mos keluvchi va Tashkilotchi tomonidan belgilangan pul mablag‘lari summasi.

1.13. Tadbir tashkilotchisi — davlat organlari va tashkilotlari, shuningdek fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, yuridik shaxslar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar, shu jumladan nodavlat notijorat tashkilotlar (NNT), siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalari bo‘lib, ular tegishli shartnomalar asosida ijrochilar bilan hamkorlikda Tadbirni tashkil etadi va o‘tkazadi hamda uning o‘tkazilishi uchun Xaridorlar/Ishtirokchilar oldida javobgar hisoblanadi.

1.14. Xaridor — muomala layoqatiga ega jismoniy shaxs bo‘lib, veb-servis va mobil ilova formatidagi Platforma orqali Chiptalarni sotib oladi va uning nomiga Buyurtma rasmiylashtiriladi.

1.15. Servis to‘lovi — Xaridor tomonidan Platforma orqali Chipta sotib olayotganda Agent tomonidan Tadbir haqida ma’lumot berish, bron qilish, Buyurtmani shakllantirish, onlayn sotish va Chiptani rasmiylashtirish xizmatlari uchun to‘lanadigan pul mablag‘lari.

1.16. Tizim — Agentning elektron chiptalarni sotish uchun mo‘ljallangan veb-servis va mobil ilova formatidagi Platformasi bo‘lib, Internet tarmog‘ida Chiptalar savdosini avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan.

1.17. Sayt — Agentning veb-sayti https://olbilet.uz.

2. UMUMIY QOIDALAR

2.1. Mazkur Oferta predmeti — Agent tomonidan Xaridorlarga Tadbirlar uchun Chiptalarni realizatsiya qilish xizmatlarini, shuningdek qo‘shimcha xizmatlarni ko‘rsatishdan iborat.

2.2. Chiptalarni Xaridorga realizatsiya qilish faqat mazkur Oferta shartlari asosida va faqat uning to‘liq hamda so‘zsiz aksepti qilingan taqdirda amalga oshiriladi. Qisman aksept, shuningdek boshqa shartlar asosidagi akseptga yo‘l qo‘yilmaydi. Xaridor tomonidan mazkur Ofertada ko‘rsatilgan shartlar asosida Agent xizmatlarini qabul qilish ular o‘rtasida tegishli shartnoma tuzilganligini, ya’ni yuridik ahamiyatga ega harakatlar amalga oshirilganligini anglatadi.

2.3. Realizatsiya qilingan Chiptalar uchun pul mablag‘larini qaytarish faqat Tadbir bekor qilingan yoki boshqa vaqtga ko‘chirilgan taqdirda, Tadbir ko‘chirilganligi yoki bekor qilinganligi haqidagi xabar rasman e’lon qilingan sanadan boshlab 30 (o‘ttiz) kalendar kun ichida, Xaridor tomonidan topshirilgan rasmiy ariza asosida, agar Tashkilotchi tomonidan belgilangan shartlarda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, amalga oshirilishi mumkin. Belgilangan tartibda va belgilangan muddatlarda o‘tkazilgan Tadbirlar (shu jumladan bog‘lar va kinoteatrlar) uchun Chiptalar

bo‘yicha pul mablag‘lari qaytarilmaydi. Karta (Uzcard/Humo/Visa) orqali to‘langan taqdirda pul mablag‘lari faqat to‘lov amalga oshirilgan kartaning o‘ziga qaytariladi. Chegirma asosida sotib olingan chiptalar, shuningdek taklifnoma (bepul) chiptalar qaytarilmaydi.

2.4. Mazkur Oferta tomoni faqatgina Chiptalarni Tadbirlar uchun o‘zining shaxsiy, tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan maqsadlarda sotib oladigan Xaridor hisoblanadi. Xaridor Chipta dan o‘zining yoki uchinchi shaxslarning tovarlari, ishlari va xizmatlarini reklama qilish uchun foydalanmaslikka, shuningdek sotib olingan Chiptalarni uchinchi shaxslarga qayta sotmaslikka rozilik bildiradi.

3. AKSEPT TARTIBI VA SHARTLARI

3.1. Xaridor mazkur Ofertada belgilangan aksept harakatlarini amalga oshirishdan oldin mazkur Oferta shartlari va boshqa majburiy qoidalar bilan tanishganligini tasdiqlaydi. Xaridor mazkur Oferta va boshqa majburiy qoidalar to‘liq tushunarli ekanligini va ularni to‘liq qabul qilishini tasdiqlaydi.

3.2. Xaridor nomidan uning vakili harakat qilgan hollarda, Xaridor ushbu shaxsning barcha harakatlari/harakatsizligi Xaridorning xabardorligi, roziligi va manfaatlari yo‘lida amalga oshirilganligini tasdiqlaydi.

3.3. Aksept Xaridor tomonidan quyidagi mustaqil harakatlardan birini amalga oshirish orqali bajariladi:

3.3.1. Agentning veb-servis va mobil ilova formatidagi Platformasida Chipta sotib olish jarayonida Xaridor tomonidan Buyurtmani rasmiylashtirish;

3.3.2. Xaridor/Ishtirokchi tomonidan Tadbirni ko‘rish xizmatidan foydalanish maqsadida Chipta dan amalda foydalanish.

3.4. Ofertaning 3.3-bandida ko‘rsatilgan harakatlardan istalgan birining bajarilishi Tomonlar tomonidan Xaridor/Ishtirokchi tomonidan mazkur Oferta shartlarining to‘liq va so‘zsiz qabul qilinishi sifatida tan olinadi va oddiy yozma shakldagi shartnoma tuzilishiga tenglashtiriladi.

3.5. Chipta Platforma orqali buyurtma qilinganida, Xaridor tomonidan Buyurtma rasmiylashtirilgan paytdan boshlab 15 daqiqa ichida Chipta nominal qiymati va servis to‘lovini to‘lash majburiyati bajarilmasa, bu Dastlabki shartnomalar shartlarini aksept qilish harakatining bekor bo‘lishiga va Xaridor tomonidan amalga oshirilgan Buyurtmaning bekor qilinishiga olib keladi.

3.6. Chipta Agentning veb-servis va mobil ilova formatidagi Platformasi orqali rasmiylashtirilganda, u “Shaxsiy kabinet” bo‘limidagi “Mening buyurtmalarim” yorlig‘ida aks ettiriladi. Agar Xaridor elektron pochta manzilini ko‘rsatgan bo‘lsa, Chipta ushbu manzilga ham yuboriladi.

3.7. Chipta sotib olish orqali Xaridor Tadbir xarid vaqtida allaqachon boshlangan bo‘lishi mumkinligini bilishini va bunga roziligini tasdiqlaydi.

4. SHAXSIY MA’LUMOTLARNI QAYTA ISHLASH SHARTLARI

4.1. Oferta shartlarini aksept qilish orqali Xaridor O‘zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq ravishda Agentga taqdim etilgan ma’lumotlarni va (yoki) uning shaxsiy ma’lumotlarini avtomatlashtirilgan vositalar yordamida hamda bunday vositalardan foydalanmasdan qayta ishlashga so‘zsiz rozilik beradi.

Bunga quyidagilar kiradi: yig‘ish, yozib olish, tizimlashtirish, to‘plash, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o‘zgartirish), ajratib olish, foydalanish, uzatish, taqdim etish, shaxsini aniqlab bo‘lmaydigan holatga keltirish (anonimlashtirish), bloklash, o‘chirish va yo‘q qilish.

Ushbu qayta ishlash Agent tomonidan Chiptalarni realizatsiya qilish bilan bog‘liq majburiyatlarini bajarish, mazkur Ofertada nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarish (jumladan, Tomoshabin tomonidan qaytarish bo‘yicha murojaat qilingan hollarda), shuningdek jinoiy yo‘l bilan olingan pul mablag‘larini legallashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha normativ hujjatlar talablarini bajarish maqsadida amalga oshiriladi.

Xaridor tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlardan foydalanish muddati — cheklanmagan (muddatsiz).

Shuningdek, Xaridor o‘zi ko‘rsatgan telefon raqami va (yoki) elektron pochta manziliga axborot xabarnomalarini (dolzarb tadbirlar, chegirmalar, sovg‘a sertifikatlari, tabriknomalar, taklifnomalar va boshqalar haqida) yuborish maqsadida Agent tomonidan uning ma’lumotlari va (yoki) shaxsiy ma’lumotlarini qayta ishlash va ulardan foydalanishga ham so‘zsiz rozilik beradi. Ushbu rozilik Xaridor tomonidan yozma va (yoki) elektron tarzda xabarnomalarni olishdan voz kechish to‘g‘risida Agentga bildirishnoma yuborilgunga qadar amal qiladi.

5. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Xaridor quyidagi huquqlarga ega:

5.1.1. Chipta to‘langan va mazkur Oferta shartlariga rioya qilingan taqdirda Chipta olish.

5.1.2. Agent vakolatlari doirasida mavjud bo‘lgan Tadbirlar, Chipta toifalari va ularni realizatsiya qilish qoidalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni veb-servis va mobil ilova formatidagi Platforma orqali olish.

5.1.3. Taklif etilgan to‘lov usullaridan birini tanlash. Bunda Xaridor tanlangan to‘lov usulidan foydalanish qoidalari bilan mustaqil ravishda tanishishi shart.

5.1.4. Saytda ko‘rsatilgan aloqa ma’lumotlari orqali Agent faoliyati haqida fikr-mulohazalar (feedback) yuborish.

5.1.5. Agar bunday imkoniyat mavjud bo‘lsa, Platformada e’lon qilingan bonuslar va chegirmalardan foydalanish.

5.1.6. Agent Tadbirning sifati, uning ko‘chirilishi yoki bekor qilinishi uchun javobgar emas — ushbu javobgarlik Tashkilotchiga yuklatiladi.

5.2. Xaridor majbur:

5.2.1. Chipta Platforma (veb-servis va mobil ilova) orqali sotib olinganda zarur bo‘lgan to‘g‘ri va to‘liq ma’lumotlarni taqdim etish. Bunda Tomoshabin Agent xodimlariga taqdim etilgan ma’lumotlar va axborot uchun to‘liq javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi.

5.2.2. Muayyan Tadbirga oid barcha cheklovlar, jumladan voyaga yetmagan bolalarning qatnashishi bilan bog‘liq talablar bilan tanishish. Xaridor o‘zi uchun emas, balki voyaga yetmagan bolalar manfaatida sotib olingan Chiptalar uchun ham javobgar hisoblanadi. Xaridor ushbu shaxslar uchun to‘liq javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi va yoshga oid cheklovlar buzilgan taqdirda voyaga yetmagan bolaga ham, Xaridorning o‘ziga ham Tadbirga kirish (yoki Chipta sotib olish) rad etilishi mumkinligiga rozilik bildiradi.

5.2.3. Chipta nominal qiymatini va Agentning servis to‘lovini to‘liq hajmda to‘lash.

5.2.4. Agent faoliyati yoki uning ishchanlik obro‘siga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan noto‘g‘ri yoki bila turib yolg‘on ma’lumotlarni joylashtirmaslik, e’lon qilmaslik, uzatmaslik va tarqatmaslik.

5.2.5. Mazkur Ofertada va Platformada (veb-servis va mobil ilova) ko‘rsatilgan qoidalarga muvofiq Chipta rasmiylashtirish/to‘lash, almashtirish va (yoki) qaytarish tartiblariga rioya qilish.

5.2.6. Tadbir tashkilotchilari, Tadbir o‘tkaziladigan obyekt ma’muriyati vakillari hamda ichki ishlar organlarining qonunchilik, umumiy qabul qilingan xulq-atvor qoidalari va xavfsizlik talablariga rioya etish bo‘yicha qonuniy talablarini bajarish.

5.2.7. Chipta va undagi ma’lumotlarning (QR-kod va/yoki shtrix-kod va boshqalar) saqlanishini ta’minlash uchun barcha zarur choralarni ko‘rish. Shuningdek, Chipta va undagi ma’lumotlarning maxfiyligini ta’minlash hamda ularning nusxa ko‘chirilishining oldini olish uchun barcha zarur choralarni ko‘rish.

5.3. Agent quyidagi huquqlarga ega:

5.3.1. Xaridor Platformada (veb-servis va mobil ilova) ko‘rsatilgan ma’lumotlardan tashqari Tadbir haqida qo‘shimcha ma’lumot so‘ragan taqdirda, ushbu ma’lumotlarni Tadbir tashkilotchisidan aniqlashtirib, Xaridorga taqdim etish.

5.3.2. Servis to‘lovi yoki boshqa xizmatlar tariflarini oldindan xabardor qilmasdan bir tomonlama tartibda belgilash va o‘zgartirish.

5.3.3. Xaridordan mazkur Ofertada va Saytda belgilangan barcha tartib-qoidalarga rioya etishni talab qilish.

5.3.4. Agar Buyurtma bron qilish muddati davomida to‘lanmasa, rasmiylashtirilgan Buyurtmani bekor qilish. Bekor qilingan Buyurtma qayta tiklanmaydi va uni faqat Xaridor tomonidan yangi Buyurtma yaratish orqali qayta rasmiylashtirish mumkin.

6. NIZOLARINI HAL QILISH

6.1. Mazkur Oferta shartlari asosida tuzilgan shartnomani bajarish jarayonida yuzaga keladigan nizolar da’vo (pretensiya) tartibida hal qilinadi. Pretensiya Agent manziliga yozma shaklda, qo‘yilayotgan talablarni asoslovchi hujjatlar ilova qilingan holda, nizo yuzaga kelgan kundan boshlab 10 (o‘n) ish kunidan kechiktirmay yuborilishi lozim. Kelib tushgan pretensiya Agent tomonidan u olingan kundan boshlab 7 (yetti) ish kuni ichida ko‘rib chiqiladi.

6.2. Agar tomonlar o‘rtasidagi nizolar va kelishmovchiliklar muzokaralar yo‘li bilan hal etilmasa, ular Agent joylashgan hududdagi tegishli sudda ko‘rib chiqiladi.

6.3. Mazkur Ofertada nazarda tutilmagan barcha masalalarda Tomonlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladilar.

7. OFERTANI O‘ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH

7.1. Mazkur Oferta Saytda joylashtirilgan kundan boshlab kuchga kiradi va muddatsiz amal qiladi.

7.2. Xaridor Agent tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlardan to‘lov amalga oshirilguniga qadar voz kechish huquqiga ega. Bunday voz kechish Agentning Xaridor oldidagi barcha majburiyatlari bekor bo‘lishiga olib keladi.

7.3. Agar mazkur Ofertaning bir yoki bir nechta qoidalari O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga kiritilgan o‘zgartirishlar sababli haqiqiy emas deb topilsa yoki shunday bo‘lib

qolsa, bu boshqa qoidalarning amal qilishini to‘xtatish uchun asos bo‘lmaydi.

7.4. Mazkur Ofertada nazarda tutilmagan barcha masalalarda Tomonlar Platformada (veb-servis va mobil ilova) joylashtirilgan qoidalarga va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladilar.

7.5. Xaridor mazkur Shartnoma bo‘yicha o‘z huquq va majburiyatlarini Agentning roziligisiz uchinchi shaxslarga topshirishga haqli emas.

7.6. Tomonlar yozma shaklda, mazkur Ofertada ko‘rsatilgan manzilga yuborilgan har qanday bildirishnomalar va yozishmalarni tegishli tarzda yuborilgan deb tan oladilar. Shu bilan birga, quyidagi xabardor qilish usullari ham tegishli deb hisoblanadi:

7.6.1. Platformada (veb-servis va mobil ilova) ma’lumot joylashtirish orqali — Tadbir o‘tkazish shartlaridagi o‘zgarishlar (sana, vaqt, joy, dastur va boshqalar), Tizim qoidalari, Oferta matni va keng doiradagi shaxslarga taalluqli boshqa ma’lumotlar haqida xabardor qilish uchun;

7.6.2. Xaridorning telefoni va elektron pochta manzili orqali — keng doiradagi shaxslarga hamda bevosita Xaridorga taalluqli har qanday hodisalar haqida xabardor qilish uchun.

7.7. Mazkur Ofertada “ish kunlari” deganda dushanbadan jumagacha bo‘lgan kunlar tushuniladi, O‘zbekiston Respublikasida rasmiy ravishda bayram yoki dam olish kuni deb e’lon qilingan kunlar bundan mustasno.